

TUPROQQAL'A YODGORLIGI — QADIMGI XORAZM SHAHARSOZLIGI, SAN'ATI VA DINIY HAYOTINING NOYOB MANBASI

Atadjanova Dilnoza Ganiyevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID 0009-0009-1492-286X

dilnozaatadjanova14@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21332388>

Annotatsiya. Tezisdan milodiy I–IV asrlarga oid Tuproqqal'a yodgorligining shahar tuzilishi, mudofaa tizimi, saroy majmuasi, "Podsholar zali", "Raqsga tushuvchi maskalar zali", "Ohular zali", "Jangchilar zali" va "G'alaba zali"dagi monumental tasviriy san'at namunalari, saroy yaqinidagi ibodatxonalar majmuasi hamda "podsho arxivi" hujjatlari tahlil etilib, ularning qadimgi Xorazm davlatchiligi, ijtimoiy hayoti va diniy-mifologik qarashlarini o'rganishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tuproqqal'a, qadimgi Xorazm, saroy, monumental san'at, "Podsholar zali", barelyef, devoriy surat, podsho arxivi.

Tuproqqal'a yodgorligi qadimgi Xorazm tarixini tadqiq qilishda qadimgi davr hayotiga oid ko'plab yangi ma'lumotlarni fanga olib kirgan yodgorlik hisoblanadi. Bu yodgorlik bugungi kunda Xorazm viloyatining Tuproqqal'a rayoni hududida joylashgan. Dastlab u 1945–1950 yillarda S.P.Tolstov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya a'zolari tomonidan tadqiq qilingan, 1965–1975 yillarda esa Yu.A.Rapoport va Ye.E.Nezariklar tomonidan arxeologik tadqiqot ishlari davom ettirilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida to'plangan materiallar antik davr Xorazm shaharsozligi, davlat boshqaruvi, san'ati va diniy hayotini yaxlit tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Tuproqqal'a yodgorligi tekis joyga qurilgan. Tadqiqotchilar fikricha, uni qurishdan oldin maketi yoki chizmasi ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin, chunki arxeologik tadqiqotlar jarayonida qadimgi quruvchilarning yodgorlikni qurishdan oldin belgilab olingan qoziqlari, alebastr qotishmasida pishgan g'ishtdan ishlangan ustunlar topilgan. Binolar qurilishidan oldin ularning chizmasi qoziq va iplar yordamida aniq belgilab olinib, keyin qurilish ishlari boshlangan; hattoki binolarda eshik qo'yilishi kerak bo'lgan joylar ham oldindan belgilangan. Bu qadimgi Xorazmda me'moriy loyihalash amaliyoti mavjud bo'lganligini ko'rsatuvchi muhim dalildir. Qal'ani qurishda kvadrat shakldagi 40x40x10 sm hajmdagi xom g'ishtlar ishlatilgan. Muhim jihati shundaki, qurilishda ishlatilgan xom g'ishtlarning barchasida belgilar mavjud bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, qadimgi Xorazm yodgorliklarida uchraydigan barcha belgili g'ishtlar aynan shu joyda ishlatilgan. Bu esa Tuproqqal'a yodgorligini qurishda davlatda mavjud barcha quruvchilar ishtirok etganligidan dalolat beradi va qurilishning umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Tuproqqal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, 17,5 gektar hududni egallagan va milodiy I asrdan IV asrgacha faoliyat yuritgan. Shaharning uzunligi 500 metr, eni 350 metrni tashkil etgan. Qal'a xom g'ishtdan qurilgan yo'lakli mudofaa devor bilan o'ralgan bo'lib, u qal'aning shimoli-g'arbiy burchagida xom g'ishtlardan tiklangan baland tepalik ustidagi saroy devori bilan tutashib ketgan. Mudofaa devorlari kvadrat shaklidagi burjlar bilan himoyalangan, burchak tomonlariga ikki tomonlama burjlar o'rnatilgan. Shahar mudofaa devorining tashqi

qismi pilyastrlar bilan bezatilgan va nayzasimon shinaklar o'rnatilgan. Qal'aning janubiy tomonida murakkab darvozaoldi labirinti bilan himoyalangan kirish darvozasi qurilgan.

Shaharga kirish darvozasidan markaziy ko'cha boshlangan. Markaziy ko'chadan to'g'ri burchak ostida shaharning boshqa ko'chalari rejalashtirilgan bo'lib, ular shahardagi barcha turar joylarni 10 qismga ajratgan. Shu asosda tadqiqotchilar shahar aholisi 10 mahallaga bo'lingan degan xulosaga kelganlar. Bu mahallalardan biri olov ibodatxonasi uchun ajratilgan, qolganlarida aholining turar joylari bo'lgan. Ye.E.Nezarik tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida har bir mahallada 3 tadan 6 tagacha yirik uy bo'lganligi aniqlangan va shu asosda shaharda 2,5 minggacha aholi istiqomat qilgan degan fikr bildirilgan. Qal'aning shimoli-sharqiy burchagida katta hovuz joylashgan. Bunday aniq reja asosidagi qurilish antik davr Xorazm shaharsozligining yuksak darajasini ko'rsatadi.

Qal'aning shimoli-g'arbiy burchagida alohida mudofaa devor bilan mustahkamlangan, kvadrat shaklidagi 180x180 metr hajmli inshoot qurilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu inshoot saroy bo'lgan va uning mudofaasiga alohida e'tibor qaratilgan. Saroy 15 metr balandlikdagi piramida shaklida qurilgan poydevor ustida bunyod etilgan bo'lib, devorini yanada mustahkamlash uchun uchta burj ham o'rnatilgan. Saroy shu asosning tepasidagi 80x80 metr hajmli maydonda qurilgan. Saroyga sharq tomondan kirilgan va u ochiq baland zinalarga hamda kirish maydoniga ega bo'lgan. Saroy balandligi 10 metrgacha bo'lgan mudofaa devor bilan ham o'ralgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida saroyda 102 ta xona aniqlangan va bu xonalar uch qismga bo'lib o'rganilgan. Saroyning janubi-sharqidagi bezak izlari aniqlanmagan 12 ta xonada podsho arxivi va harbiy qurollar ombori joylashgan. Saroyning janubiy tomoni bo'ylab uzun yo'lak o'tgan bo'lib, unga bir xil hajmga ega 2-3 ta xonaning eshigi qaragan; bu xonalarda devorga taqab qurilgan o'choqlar aniqlangan va ularda doimiy olov yonib turgan degan fikrga kelingan.

Saroyning asosiy qismini monumental tasviriy san'at va haykallar bilan bezatilgan xonalar tashkil qiladi. Saroyning shimoli-sharqiy qismida joylashgan, tadqiqotchilar tomonidan "Podsholar zali" deb atalgan 20x20 metrli, 350 kvadrat metrli katta zal ayvonga ham ega bo'lgan. Ayvon zal bilan uch arkali qurilma orqali ajratilgan. Zalda devor bo'ylab supalar o'rnatilgan bo'lib, ular bir-biridan loydan ishlangan yupqa panjarali to'siqchalar bilan ajratilgan; ularning soni 23 yoki 24 ta bo'lgan. Ayvonda yana uchta tokcha devorga o'yib ishlangan bo'lib, ularda zaldagi kompozitsiya takrorlangan — jami 27 ta bir-biriga o'xshash haykallar guruhi aniqlangan. Har bir kompozitsiya markazida oyog'ini chalishtirib o'tirgan, odam gavdasidan bir yarim barobar katta haykal, unga qarab turgan odam gavdasi hajmidagi uchta haykal joylashgan. S.P.Tolstov bu kompozitsiyani tadqiq qilib, unda xorazmlik podsholarning avlodlari aks ettirilgan degan xulosa bergan. Biroq keyingi tadqiqotlar natijasida markazda o'tirgan haykalning kiyimi pushti rangda bo'lganligi va etagida burmalar mavjudligi sababli uning ayol kishi ekanligi hamda bu yerda ma'budalar aks ettirilganligi haqidagi fikr ilgari surilgan. Yu.A.Rapoport haykallar kompozitsiyasini tahlil qilib, ular Abu Rayhon Beruniy asarida keltirilgan xorazmliklarning oy kunlari tasviri bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan: xorazmliklar oyidagi 30 kunni ma'budalar nomi bilan atashgan va har kuni ma'lum bir ma'budaga sajda qilishgan. Zalda 27 ta personajning bo'lishi esa har oyning 4 kuni Anaxitaga bag'ishlangani uchun unga bitta kompozitsiya ishlanganligi bilan izohlanadi.

"Raqsga tushuvchi maskalar zali"ning devorida raqsga tushayotgan ayol va erkakning barelyef tarzida ishlangan haykalining ayrim qismlari saqlanib qolgan. Bu xonadan 55 ga yaqin

raqsga tushayotgan haykallar topilgan. Erkaklar qizil rangli tor va keng ishtonlarda, ayollar esa qizil, ko'k, pushti rangli ko'ylaklarda tasvirlangan bo'lib, ko'ylak etaklaridagi burmalar juda nafis ishlangan. Xonaning markazida g'ishtdan kvadrat shaklida ishlangan supa joylashgan bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, bu yerga asosiy xudoning haykali qo'yilgan va shu xudoga bag'ishlab marosimlar o'tkazilgan bo'lishi mumkin. Bu xonadan qulog'i otning qulog'iga o'xshatib ishlangan satirning bosh qismi ham topilgan.

“Ohular zali”da ohularning barelyef tarzida ishlangan haykallari qo'yilgan bo'lib, ular ustida grifonlarning tasviri ishlangan. Devorning eng pastki qismida suvda yashovchi hayvonlarning tasvirlari bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga bu zalda anor va uzum poyalari ham aks ettirilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu zalda dunyoning uch qatlamli tuzilishi tasvirlangan bo'lib, hayotning takrorlanishi g'oyasi ilgari surilgan. “Jangchilar zali”da sovut kiygan odamlarning ko'plab haykallari barelyef tarzida ishlangan. Ular uncha chuqur bo'lmagan tokchalarga qo'yilgan bo'lib, bu tog'ning ramziy belgisi bo'lishi mumkin. Tokchalar loydan ishlangan, qo'chqor shoxlariga o'xshash qadamalar bilan bezatilgan — qo'chqor shoxi omad va sharaf ramzi hisoblangan. “G'alaba zali”ning barcha devorlarida taxtda o'tirgan podsho va uning ikki yonida ma'buda tasvirlangan bo'lib, bu podsho hokimiyatining legitimatsiyasi g'oyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Saroyning boshqa joylaridan kam saqlangan turli devoriy suratlari ham aniqlangan. Ularga qanotli musiqachilar, bo'yi 2,2 metr bo'lgan, arka ostida turgan, katta oq gullar ko'tarib, qizil chakmon kiygan ruhoni, qo'lida padnos ustida qog'oz olib kelayotgan kishi, qo'lida ip ushlab turgan ayol, yo'lbars, tustovuq, yelkasiga sadoq osgan yosh yigit hamda arfa chalayotgan ayol tasvirlari misol bo'ladi. Shular bilan bir qatorda gullar, gulbarglar va yaproqlar sochilgan holda tasvirlanib, devoriy suratlarni yanada boyitgan. Ushbu tasvirlar antik davr Xorazm rangtasvir san'atining mavzu doirasi naqadar keng bo'lganligini ko'rsatadi.

Tuproqqal'a saroyidan 100 metr shimolda arxeologlar tomonidan yana bir tepalik aniqlangan bo'lib, bu yerda tadqiqot ishlari 1976–1985 yillarda, 10 gektar hududda olib borilgan. U yerdan poydevor ustiga qurilgan 14 ta uncha katta bo'lmagan inshoot aniqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu inshootlar ma'lum bir majmuani tashkil qilib, o'zida 4 ta saroy va 4 ta ibodatxonani jamlagan. Ikkita saroy hashamatli qurilgan bo'lib, ikkitasi shohlarning ichki uylari bo'lgan degan xulosa berilgan. To'rtta ibodatxona bir chiziq bo'ylab tekis qurilgan. Majmua juda yomon saqlanganligi sababli faqat birinchi saroy poliga tushib ketgan tasvirni qayta tiklash imkoni bo'lgan. Tasvirda qattiq qayg'uga tushgan, inson bo'yi-bastiga mos chizilgan uchta ayol aks ettirilgan. Ulardan tashqari yana ikki ayol tasvirlangan bo'lib, ular tobut yonida sariq doirachalari bo'lgan yashil yopinchiqni ushlab turishibdi. Katafalk oldida qizil rangli polda ikkita oq atirgul, gulbarglari sochilgan holda tasvirlangan. Birinchi planda sochlarini yoygan, yuzini chirmayotgan ayol chizilgan, yana bir ayol tobut oldida cho'kkalab o'tirgan, uchinchisi qo'llarini yuqoriga ko'targan holatda berilgan. Bu sahna «yig'i» marosimi tasviri bo'lib, O'rta Osiyo hududidan topilgan eng qadimiy shunday tasvir hisoblanadi.

Majmuadan g'arbda 1250x1000 metr hajmdagi to'g'ri to'rtburchakli katta maydon aniqlangan. U yerdan hech qanday moddiy manba, qurilish yoki dala izlari topilmagan. Tadqiqotchilar fikricha, bu joy turli diniy marosimlar va bayramlar o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin; bu yerda harbiy yoki boshqa musobaqalar o'tkazilgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. «Avesto»da otlar musobaqasiga katta e'tibor qaratilganligini

inobatga olsak, qadimda saroylar yonida shunday musobaqalar o'tkaziladigan maxsus joylar ham bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Tuproqqal'a topilmalaridan yana biri — bu joydan o'sha davrga oid hujjatlarning topilishi. Ular milodiy III asrga oid bo'lib, uzoq vaqt davomida to'planib kelingan va eng oxirgi hujjat milodiy IV asrning boshlariga tegishlidir. Tadqiqotchilar bu hujjatlarni "podsho arxivi" deb nomlaganlar va yozuvlar lingvist V.A.Livshis tomonidan o'qilgan. Yaxshi ishlov berilgan teri bo'laklariga saroyga olib kelingan mahsulotlar va tovarlar qayd qilingan. Yog'och bo'laklarida esa oila boshlig'i bo'lgan erkaklarning ro'yxati keltirilgan: ular o'zlariga qarashli urug'dan urushga yaroqli kishilarni olib kelgan va saroyga kelgach ro'yxatga olingan bo'lishi mumkin. Bu hujjatlar qadimgi Xorazmda yozma ish yuritish, soliq-ta'minot tizimi va harbiy safarbarlik tartibi mavjud bo'lganligini ko'rsatuvchi bebaho manbadir.

Tuproqqal'ada hayot to'xtashining sababini tadqiqotchilar ikki xil izohlaydilar: ayrimlari bu joyga suvning bormay qolganligi deb hisoblasa, boshqalari hokimiyat tepasiga yangi sulola vakillarining kelishi bilan bog'laydilar. Muhimi, Tuproqqal'ada jang izlari kuzatilmagan; aksincha, devoriy suratlar va haykallarning buzilib ketmasligining oldini olish maqsadida ular konservatsiya qilingan. Bu shaharning tinch yo'l bilan tark etilganligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, Tuproqqal'a yodgorligi qadimgi Xorazmning yuksak shaharsozlik madaniyati, oldindan loyihalashga asoslangan qurilish amaliyoti, rivojlangan davlat boshqaruvi va hujjatchiligi, boy monumental tasviriy san'ati hamda diniy-mifologik qarashlarini yaxlit holda namoyon etuvchi noyob manbadir. Milodiy eraning boshlarida Xorazm vohasidan Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi mintaqaning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, Tuproqqal'a materiallari antik davr O'rta Osiyo sivilizatsiyasini, uning davlatchilik an'analari va badiiy madaniyatini o'rganishda fundamental o'rin tutadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Городище Топрак-Кала. ТХАЭЭ. XII. – Москва: Наука, 1981. – С. 9, 139–140.
2. Рапопорт Ю.А. Хорезм в древности // Рапопорт Ю.А., Неразик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта. Образы древнего Приаралья. – Москва: Индрик, 2000. – С. 53–62.
3. Топрак-Кала — Дворец. – С. 251–287.
4. Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи.
5. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг муҳофаа иншоотлари. – Б. 75–76.